

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLAR VA ZAMONAVIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Raxmonova Sojida Muxammadovna,
Buxoro davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi

Jumayeva Gulsum Qiyomovna
Turkiston Yangi Innovatsiyalar Universiteti magistranti
<https://orcid.org/0009-0004-7184-1242>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalar nutqini o'stirish hamda tafakkurini rivojlantirish ishlari "Nutq o'stirish" va "Badiiy adabiyot bilan tanishitirish" kabi ta'limiy faoliyatlar, ta'limiy jarayonlar va ularni didaktik o'yinlar orqali tashkil etishning ahamiyatli tomonlari, didaktik o'qitish maqsadi, didaktik qonuniyatlari, didaktik tamoyillar, didaktik shart sharoitlar, bolalarning o'zlashtirish natijalari, bolalarning yosh xususiyatlari, ta'limiy faoliyatning tashkil etilishi ya'ni tuzilmasini to'g'ri qurilishi, didaktik o'yinlarning qoidalari hamda ta'lif va tarbiya jarayonida qo'yiladigan o'quv talablar, didaktik talablarga rioya qilishi maqsadga muvofiq ekanligi, didaktik o'yinlar bolalar uchun qiziqarli bo'lishi zarurligi, didaktik o'yinlar maqsadi, o'ziga xosliklarini aniqlay olishga imkon beradigan sharoitga ega bo'lishi, pedagog didaktik o'yinlar maqsadini oldindan belgilashi, yangi egallanadigan bilimlar doirasini aniqlashi, o'r ganilishi rejalaشتirilayotgan bilim va shakllantirilishi nazarda tutilayotgan ko'nikmalarining bolalardagi mayjud tajribalar bilan aloqadorligini ta'minlashi lozimligi, bolalar nutq va tafakkurini rivojlantirish uchun o'yin davomida tarbiyachi bolalarni tinglashi va ko'rsatmalar berilishi zarurligi, qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib didaktik o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda izchil, tizimli, rejali tarzda amalga oshirilishibolalar nutqini rivojlantirishda pedagoglar tomonidan qo'llanilayotgan ta'limiy metodlar, didaktik o'qitish maqsadi, ko'zlangan maqsadlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ta'lif, tarbiya, tamoyil, metod, didaktik o'yin, komponent, tafakkur, salohiyat, imkoniyat, rivojlanish, intellektual salohiyat, takomillashuv, ijodiy qobiliyat, dunyoqarash, yetuklik.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие речи и мышления детей в дошкольных образовательных организациях через образовательную деятельность, образовательные процессы и их организацию посредством дидактических игр, таких как «Развитие речи» и «Знакомство с художественной литературой». цель дидактического обучения, дидактические законы, дидактические принципы, дидактические условия, результаты обучения детей, возрастные особенности детей, организация учебной деятельности, т.е. правильное построение структуры, правила дидактических игр и образовательные требования, предъявляемые в процессе воспитания и обучения, что целесообразно соблюдать дидактические требования, необходимость того, чтобы дидактические игры были интересны детям, цель дидактических игр, что позволяет определить их особенности, условия, педагог должен определить цель дидактических игр в заранее определить объем вновь полученных знаний, обеспечить связь знаний, которые планируется усвоить, и навыков, которые планируется формировать, с имеющимся опытом детей, в целях развития речи и мышления детей, необходимости Воспитатель должен слушать детей и давать указания в ходе игры, исходя из поставленных целей и задач, дидактические игры должны проводиться последовательно, систематически, планомерно с учетом возрастных особенностей детей, методов, цели дидактического обучения, намеченных целей. Обсуждаются.

Ключевые слова: Образование, обучение, принцип, метод, дидактическая игра, компонент, мышление, потенциал, возможность, развитие, интеллектуальный потенциал, совершенствование, творческие способности, кругозор, зрелость.

Abstract: In this article, the development of children's speech and thinking in pre-school educational organizations is discussed through educational activities, educational processes and their organization through didactic games, such as «Speech development» and «Fictional literature introduction». important aspects, the purpose of didactic teaching, didactic laws, didactic principles, didactic conditions, the results of children's learning, children's age characteristics, the organization of educational activities, i.e., the correct construction of the structure, didactic games rules and educational requirements set in the process of education and training, that it is appropriate to comply with didactic requirements, the need for didactic games to be interesting for children, the purpose of didactic games, which allows to determine their peculiarities conditions, the pedagogue

should determine the purpose of didactic games in advance, determine the scope of newly acquired knowledge, ensure that the knowledge that is planned to be learned and the skills that are planned to be formed are related to the existing experiences of children, in order to develop children's speech and thinking the need for the educator to listen to the children and give instructions during the game, based on the set goals and tasks, didactic games should be implemented in a consistent, systematic, planned manner in connection with the children's age characteristics methods, purpose of didactic teaching, intended goals are discussed.

Key words: Education, training, principle, method, didactic game, component, thinking, potential, opportunity, development, intellectual potential, improvement, creative ability, outlook, maturity.

Respublikamizda globallashuv sharoitida yuz berayotgan ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar asosida maktabgacha ta’lim tizimida kasbiy va metodik faoliyat samaradorligini oshirish, tarbiyachilarning kreativlik potensialini rivojlantirish yuzasidan keng miqyosda izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur jarayon bugungi kunda kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning ustivor yo‘nalishlari: noformal va informal o‘qitish mazmunini takomillashtirish, bolalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish, mashg‘ulotlarning integratsiyalashuvini ta’minlashning turli modellari va texnologiyalarini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu o‘rinda aytishimiz joizki, uzlusiz ta’limning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi xorijiy mamlakatlarning amaliy tajribasini o‘rganish kreativ yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirish borasida muhim poydevor bo‘ldi.

Bilamizki ta’limda sifat va samaradorlikni yaxshilash, ta’limiy faoliyatni yanada jlonlantirish maqsadida metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim metodlari – o‘quv jarayonining bir komponenti bo‘lib, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatining barcha tomonlarini ochib berishga, muloqot jarayonlarining faollashtirib, bolaning imkoniyatlarini yanada takomillashib borishiga asos bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida barchamizga ma’lumki beshta faollik markazlarida ta’limiy faoliyatlar olib boriladi. Har qanday mashg‘ulotni didaktik o‘yinlar orqali tashkil etilib, pedagog tomonidan qo‘llanilayotgan ta’limiy metodlar kichik guruhdan o‘rtta guruhga, katta guruhdan va maktabga tayyorlov guruhlariga o‘tish asnosida oddiydan murakkabga qarab o‘zgarib, murakkablashib, takomillashib boradi. Ta’limiy faoliyatlarda didaktik o‘yinlarni, metodlarini, texnologiyalarini o‘rinli qo‘llay olish tarbiyachining kasbiy kompetentligi va mahorati, bilim darajasiga bog‘liq holda tashkil etiladi hamda takomillashtirib boriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqini o‘stirish hamda tafakkurini rivojlantirish ishlari ‘Nutq o‘stirish’ va ‘Badiiy adabiyot bilan tanishtirish’ kabi ta’limiy faoliyatlarda, shuningdek bolalarning kunlik faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta olish birinchi poydevor vazifasini bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq o‘stirish mashg‘ulotlari orqali, bir qancha texnologiyalar hamda ta’limiy metodlar asosida birin-ketin, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bolalarga narsa-hodisalar yoki jarayonlarni sin’iy vaziyat orqali emas balki, tabiiy holatda namoyish qilish ularning tafakkurini rivojlantirishda samarali tomoni ko‘proq. Ammo tarbiyachi tabiiy holat namoishini har doim ham amalga oshira olmaydi. Shu sababli, tarbiyachilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun’iy muhitga murojaat qilishadi va narsa-hodisalar haqqida ma’lumotlarni sun’iy vaziyatlar orqali namoyish qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogi ta’lim jarayonlarini tashkil etarkan u didaktik qobiliyatga ega bo‘lmog‘i lozim. Didaktik o‘qitish maqsadi, didaktik qonuniyatlar, didaktik tamoyillar, didaktik shart sharoitlar, bolalarning o‘zlashtirish natijalari, bolalarning yosh xususiyatlari, ta’limiy faoliyatning tashkil etilishi ya’ni tuzilmasini bilishi muhimdir. Didaktik o‘yinlarning qoidalari hamda mazmuni ko‘p jihatdan turli yoshdagagi bolalarga ta’lim va tarbiya jarayonida qo‘yiladigan o‘quv talablariga muvofiq holda qo‘llaniladi.

Tarbiyachi-pedagog ta’limiy faoliyatlarda didaktik talablarga rioya qilgan hola jarayonlarni tashkil etishida quyidagi komponentlarga amal qilmog‘i lozim.

Ta’limiy jarayonning tuzilishi va mazmuni

Ta’lim shakllari

Ta’lim usullari, vositalari

Baholash

Takrorlash

Kutilgan natija

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari bolalar bilan birlgilikda faoliyat olib borishda, ta’lim jarayonini

tizimli tartibga solish imkoniyatiga ega bo'lishda ushbu asosiy komponentlarni faoliyatda o'rini qo'llay olsalarga ta'lim sifati oshadi va kutilgan natijaga erishadi.

Batafsil aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari didaktik talablarga riosa qilishi maqsadga muvofiq ekanligi, didaktik o'yinlar bolalar uchun qiziqarli bo'lishi zarurligi, didaktik o'yinlar maqsadi, o'ziga xosliklarini aniqlay olishga imkon beradigan sharoitga ega bo'lishi, pedagog didaktik o'yinlar maqsadini oldindan belgilashi, yangi egallanadigan bilimlar doirasini aniqlashi, o'rganilishi rejalashtirilayotgan bilim va shakllantirilishi nazarda tutilayotgan ko'nikmalarning bolalardagi mavjud tajribalar bilan aloqadorligini ta'minlashi lozimligi, bolalar nutq va tafakkurini rivojlantirish uchun o'yin davomida tarbiyachi bolalarni tinglashi va ko'rsatmalar berilishi zarurligi, qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib didaktik o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda izchil, tizimli, rejali tarzda amalga oshirilishini ta'minlashi maqsadga muvofiqli.

Bolalar nutqini o'stirish va badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ta'limiy faoliyatlarda bolalar tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi tamoyillar mavjud:

ta'limiy jarayonini tashkil etishda integratsiya ta'minlash;

izchillik, sistemalilik, bosqichma-bosqichlik;

demokratlashtirish, insonparvarlashtirish;

bola shaxsiga qo'yiladigan ta'limiy tarbiyaviy talab;

ta'lim mazmuni, metod va vositalarining bola shaxsiga mosliligi;

umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash;

ta'limni dastur asosida tashkil etish;

adolatlilik, demokratik yondoshuv;

bola shaxsiga differensial munosabat;

ta'lim-tarbiyada kommunikativlik;

faoliyatni kuzatish, nazorat qilish, monitoring olib borish.

Bola shaxsini pedagogik va psixologik jihatdan o'rganish, ta'limiy faoliyatlarni samarali tashkil etishda ushbu tamoyillar asos sifatida xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlarda tayanish, didaktik muhit, sharoitlar yaratilishi bilan belgilanadi. Didaktik ta'limiy o'yinlarga asoslangan holda mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'yidagilarga amal qilish lozim:

didaktik ta'limiy o'yinlar dastur asosida tashkil etilishi

didaktik ta'limiy o'yinlarning bola yosh xususiyatiga mosligi;

kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish;

atrof-muhitga munosabati;

milliy qadriyatlar uyg'unligi aks etishi lozim.

Maktabgacha yosh davr - bu bolalikning eng muhim hamda uning shaxs sifatida kamol topishi, shakllanishi va rivojlanishing qisqa, biroq eng muhim davri sanaladi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin sanalib, o'yin faoliyati davomida ular ham ruhan ham jismonan taraqqiy etadilar. Bolalarga maroq, quvonch bag'ishlab kelgan o'yinlarda ular o'zlarini topishadi, mustaqil bo'lishadi, erkin faoliyat jarayonida hayotni taniy boshlaydilar, atrof-muhitga shaxsiy munosabat shakllana boradi.

Alohibda e'tirof etish lozimki, didaktik o'yinlar tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, bolaning fikrlash xususiyatlarida, bola shaxsining rivojlanishida, qiziqishlarida, ehtiyojlarida, muloqotida, munosabatida, umuman olganda barcha faoliyatlarida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish hamda tafakkurini rivojlantirishda mashg'ulot jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali maroqli tashkil etishda tarbiyachilarning ijodkorligi, kreativligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ijodkor, kreativ, kasbiy bilimga, mahoratga ega pedagog bola faoliyatini maroqli, aniq, bolaning imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etadi. Bolani ta'limga emas, ta'limni bolaga moslashtira oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlar asosida ta'limiy faoliyatlarning olib borilishi hamkorlik, birdamlik, o'zaro birgalikdagi harakat yotadigan interfaol o'qitish metodlari istiqbolini aks ettiradi. Shuni alohibda aytish lozimki,, didaktik ta'limiy o'yinlar bilan bir qatorda harakatli jismoniy o'yinlar ham maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning keyingi bosqichga o'tishlari uchun juda ahamiyatli hisoblanadi. Taniqli olimlar, psixologlar va pedagoglar K. D. Ushinskiy, A. N. Leontiev, N. K. Krupskaya, L. S. Vygotskiy, A. M. Gorkiy, A. S. Makarenko, B. D. Elkoninlar bola psixologiyasini shakllantirishda o'yinning etakchi o'rni haqqidagi fikrlarni ilgari surgan. 18-asrda Jan-Jak Russo bolani bilish va tushunish uchun uning o'yinini kuzatish

kerakligini ta'kidladi. Bilamizki, kattalardan muloqot uchun tabiiy muhit bu til, bola uchun esa muloqot uchun tabiiy muhit bu o'yin faoliyatidir. Didaktik o'yinlar, harakatli o'yin faoliyatları jarayonida bolalar faoliyatining yangicha turlari yaratiladi va farqlanadi.

Ma'lumki, bolalar o'yinlarining turlicha xillari, turlari mayjud. Ayrim o'yinlar tarbiyachining rahbarligi ostida bolalarning o'zлари tomonidan yaratilgan - bu ijodiy o'yinlar, ayrimlarining qoidalari oldindan yaratilgan va ma'lum qoidalarga ega - bu esa qoidalalar bilan o'yinlardir. O'z navbatida, qoidalarga ega o'yinlarining o'zi ikkiga bo'linadi - mobil va didaktik o'yinlar. Har bir o'yin turining xarakteri, o'yin xususiyatlarini to'g'ri, aniq tushunish o'yin boshqarilishi uchun katta ahamiyatga ega.

Tahlillariga ko'ra o'yin bolalarda shodlik, quvonch baxsh etar ekan, bola o'yin orqali o'z ehtiyojlarini qondirar ekan. O'yin bolaning ijodiy qobiliyatini, imkoniyatlarini, o'ziga ichonch hissini oshiradi, bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish, bir-biriga yordam berish umumiyligini qilib aytganda barcha qobiliyatlarini takomillashishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, har qanday o'yinda nutq bolaga hamroh bo'ladi. Turli xildagi o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalar yangi so'zlar va ularni o'z so'zlashuv faoliyatida qo'llashni o'rganadilar va mashq qiladilar, o'yinning rivojlanishi bilan so'z tasvirni yaratish, rol o'ynash, syujetni rivojlantirishning asosiy vositasiga aylanadi.

O'yin jarayoni doimo o'zgarib turishi va harakat jarayonlarining xilma-xilligi, bolaga mustaqilliq bera olishi, o'ziga ishonch, erkinlik, muloqot, o'rtoqlari bilan hamkorlikda bo'lish bilan bolalarni o'ziga rom qiladi. O'yin bolaga zavq beradi, yuqori kayfiyat, yoqimli xayajonlar bera oladi. Shu bilan bir qatorda harakatli o'yinlar bolalarga juda yoqadi va ular harakatli oyinlarni seveb o'ynashadilar. Shuning uchun ham ta'lif jarayonlarni o'yinlar orqali tashkil etilishiga katta ahamiyat beradilar. Harakatli o'yinlar bolalarning erkin faoliyat davrida, sayr faoliyat davrida, jismoniy tarbiya mashq'ulotlaridan o'rinni egallaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish hamda tafakkurini rivojlantirishda barcha guruh bolalari uchun aksariyat o'z fikrlarini erkin, izchil ifoda etishiga undovchi, so'zlarni to'g'ri va ifodali aytishga o'rgatuvchi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Eng e'tiborlisi, o'yinlarni tashkil etishda birinchi navbatda muhitni tashkil qilish va o'yin vositalarini to'g'ri tanlash so'ngra o'yindagi sheriklarini tanlashda ko'proq ahamiyat qaratmoq hamda bolani o'yin vaqtida to'g'ri muloqot qilishga o'rgatish lozim.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida turli xildagi didaktik o'yinlar va stol usti o'yinlaridan tashqari jumboqlar, muammoli vaziyatlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Bolalar jumboqli o'yinlarni ishtiyoq bilan hal qilishga harakat qilishadi. Shu sababli maktabgacha ta'lif tashkilotlari ta'limiy faoliyatlarida bu kabi o'yinlardan, topishmoqlardan ko'proq foydalanish maqsadli ekanligi ta'kidlanadi. Alovida aytib o'tish joizki, topishmoqlar, muammoli o'yinlarda bolalarning tasavvuri, idroki, hayoloti rivojlanadi. Tasvirlay olish, ta'rif berish, mustaqil fikrlash qobiliyati, turli xil vaziyatlarga, so'zlarga tezkor munosabati shakllanadi. Shubhasiz barcha turdag'i o'yinlar nutq rivojlanishida etakchi rol o'ynaydi. O'yinlar o'z bayonotlari bilan o'z xususiyatlari bilan bolalarda bahslashish qobiliyatini sekin-asta shakllantiradi.

Ma'lumki, didaktik o'yinlar ko'p qirrali, murakkab pedagogik hodisa bo'lib, axloqiy tarbiya vositasi sifatida ham ta'lif miy faoliyatlarda keng qo'llaniladi. Amaliyotdan ma'lumki, didaktik o'yinlar tarbiyalanuvchilar oldiga bir qancha vazifalar qo'yadi. Bolalar atrofdagi narsa-hodisalarini xarakterlaydilar, solishtiradilar, taqqoslaidilar, guruuhlarga ajratadilar, belgilariga ko'ra tasniflaydilar, o'yin natijasini anglashga o'rganadilar, to'g'ri xulosa chiqara olishga o'rganadilar, umumlashtira oladilar va hokazolar. Bundan tashqari didaktik ta'lif miy o'yinlar bolalarning aqliy hamda kommunikativ faoliyatining kuchli stimulyatoridir. Bu esa bolalarning bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlaydi, va ularni amaliyotda qo'llay olish, imkonini beradi, ularni mustaqil hayotga, mehnat faoliyatiga o'rgatadi, bolalarda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirib, nutq odobi, fikr erkinligi va ijodiy faollilikni faollashtiradi.

Nutqning mukammalligi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun eshiklarni ochib beradi. Nutq ravonligi, mukammalligi, bolaning intellektual rivojlanishi garovidir. Bolalar qanchalik so'zga boy bo'lsa, nutqi ravon, mukammal bo'lsa, bolada o'z fikrlarini ifoda etish shunchali oson kechadi, narsa-hodisalarini anglash, kattalar bilan tengdoshlari bilan munosabatlari bola muvaffaqiyatga erishadi.

Muloqot bolada nutq rivojlantirishning asosiy vositasi sanalib, uning amalga oshirilish yo'llari turlicha bo'ladi.

Ta'lif
Maishiy
Mehnat
O'yin.

Harakatli o'yinlar, didaktik ta'limi o'yinlar tarbiyachi va bolalar o'rtaida iliq psixologik muhit yaratishi bilan ahamiyatli. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda birdamlikdagi ijodiy didaktik faoliyat - muhim pedagogik omil bo'lib xizmat qiladi.

Bilamizki, aksariyat kichik yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy qismini o'yinlar tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qadim zamondan o'yin odam hayotining zarur qismi bo'lib hisoblangan, chunki u yoqimli jismoniy yuklamani, yetarli darajada beradi munosabatda bo'lish talablarini qoniqtiradi, tarbiyalaydi xamda tashqarida ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi, shu jumladan ham ko'ngil ochar dam olish holatini va kayfiyatini yaxshilaydi.

Didaktik o'yin faoliyatini sifat va samaradorligiga erishishda ta'lim sub'ektlari nutqi, tafakkuri, takomillashtirishning bosqichlariga, turli darajada rivojlanganligiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Ta'limi faoliyat jarayonida berilgan ma'lumotlarni qabul qilish darjasini, innovatsion pedagogik texnologiyalardan, tarqatma materiallaridan, ko'rgazma vositalaridan o'rinali, maqsadli foydalanishda diqqatli bo'lish muhim sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, didaktik ta'limi o'yinlar orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishning metodik imkoniyatlarini quyidagi darajalarda kechishi aniqlandi: aksiologik-motivatsion, kreativ, refleksiv, texnologik, va konseptual daraja. Mazkur jarayonlarda esa uzluksizlik, fasilitatorlik, refleksivlik, kommunikativ hamkorlik kabi andragogik tamoyillar tarbiyachilarining kreativ kompetentliligini rivojlantirish mazmunini belgilash hamda uning zamonaviy pedagogik texnologiya hamda metodik ta'minotini takomillashtirish, o'sish sur'atini yanada oshirish, sifat-samaradorligini ta'minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Didaktik ta'limi o'yinlar bolalar nutqini rivojlantiradi: so'z boyligini oshiradi va faollashtiradi, to'g'ri ovozli talaffuzni shakllantiradi, izchil nutqni, o'z fikrlarini to'g'ri mustaqil ifoda eta olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Nutqida kamchiligi bor, nutq buzilishlaridan aziyat chekadigan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xar qanday o'yin faoliyatları ham o'z ahamiyatini va rolini ularning shaxsiyati va intellektini har tomonlama rivojlantirishning zarur sharti sifatida saqlab qoladi. O'yinlar orqali bolalar tengdoshlar bilan birligida muloqotga kirishadilar, bir-birlarini anglash, tushunish, xurmat qilish tajribasiga ega bo'ladilar. O'z xoxishlarini harakatlari va nutqi orqali namoyish etib, o'rtoqlarining istaklari bilan muvofiqlashtirishni o'rganadi.

O'yin faoliyatida bolalar erkin, ixtiyoriy xatti-harakatlar tajribasiga ham ega bo'ladilar. Shu bilan bir qatorda bola o'yin orqali o'zini nazorat qilishni, o'yin qoidalariiga rioya qilishni, kattalar nazoratisiz tengdoshlari bilan birligida o'yinni davom ettira olishni o'rganadi. Bu kabi fazilatlarning barchasi bolaning keyingi hayotida tosiquqlarni engib o'tishida, muammolarga osonlikcha echimlar topa olishida, kelajakda o'z o'rnini egallashida ko'makchi vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Turg'unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov "Ijtimoiy pedagogika asoslari" O'quv qo'llanma. Toshkent "Fan va texnologiya" 2008 y.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 b
3. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013 y. -183
4. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR olyi va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
5. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarov, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.- T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet
6. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Fan va texnologiya". 2019 y. -296 bet.
7. Raxmonova S.M. "Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023 y. P 288-293.
8. Raxmonova S.M. . "In improving the innovative professional activity of future pedagogues, problem-based learning the most effective method of teaching". Science and technologies. 2023 y. № 3 (1). P 107-112.
9. Raxmonova S.M. "Practical features of preparing primary education students for professional activity" Science and innovation in the education system, 2 (9), 2023 y. P 67-71.
10. Eshova D.Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatrining ahamiyati (Monografiya) Buxoro. 2022y.-101b.